XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-iyul VI-88-70-7-99-K/24 Nurobod tumani

Nurobod tumanidagi 4 ta nomsiz qabristonlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan taqdim etilgan 2024-yil 19-iyudagi 03/08-5950-sonli xati bilan davlat ekspertizasining taqdim qilgan xulosasini inobatga olib hamda Nurobod tumani adliya bo‘limining 2024-yil 1-iyuldagi 1-15-3/10-son taqdimnomasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, sakson sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Nurobod tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi U.Tilavovning Nurobod tumanidagi 4 ta nomsiz qabristonlarni nomlash to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan taqdim etilgan 2024-yil 19-iyudagi 03/08-5950-sonli xati bilan Nurobod tumanidagi 4 ta qabristonga nom berish to‘g‘risidagi davlat ekspertizasining xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha Respublika komissiyasining xulosasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga asosan Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining tumandagi nomsiz 4 ta qabristonlarni nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanib, ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari tumani Kengashining 2024-yil 25-iyundagi “Nurobod tumanidagi 4 ta nomsiz qabristonlarni nomlash to‘g‘risida”gi VI-87-58-7-99-K/24-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Otamuradov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va badlik bo‘limi (G‘.Musurmanov), Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (M.Muxtorov), tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligibo‘lim (V.Raxmonov) va boshqa tegishli tashkilotlar mazkur qarordan kelib chiqib, tegishli hujjatlar va hisobotlarga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin, tuman hokimligi

Obodonlashtirish boshqarmasi (O.Tadjiyev)ga nomlari tasdiqlangan qabristonlarning nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Xudayberdiyev)larga:

yangi nomlari tasdiqlangan qabristonlarning nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishda amaliy yordamlar ko‘rsatish vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari, tuman hokimining matubot kotibi (E.Pardayev), “Nurobod” gazetasi (N.Botirova)ga tashkiliy-amaliy ishlarning borishi to‘g‘risida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish hamda mazkur qarorni “Nurobod” gazetasida rasmiy e’lon berish, tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish hamda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (A.Ziyatov), Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisi o‘rinbosari (U.Tilavov), tuman hokimining o‘rinbosari (S.Xujamiyarov) zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi BERDIKULOV SIROJIDDIN VALIKULOVICH

Xalq deputatlari Nurobod tumani
Kengashining
2024-yil 29-iyuldagi
VI-88-70-7-99-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Nurobod tumanidagi 4 ta qabriston nomlari qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida
Ekspert xulosasi

T/p	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni MFY	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Respublika ekspertiza xulosasi
1.	Qabriston	Sahoba	Nomsiz	G‘ubdin	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Qabriston	Sahoba	Nomsiz	Tutli	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Qabriston	Jom	Nomsiz	Sonsuvloq ota	**Sonsuvloqota** – “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Qabriston	Nurafshon	Nomsiz	G‘arovli	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.